

KREDIT MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Saloxova Mohinur Qahramon qizi

O‘zbekiston Respublikasi, Bank-Moliya akademiyasi tinglovchi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: Kredit, davlat dasturi, bank tizimi, mobil ilova, korporativ mijoz, masofaviy bank xizmatlari, “Digital bank” tizimi, Germaniya modeli, Angliya modeli, KATM, moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasi.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada aholi farovonligini oshirish uchun kredit mablag‘laridan foydalanishning zamonaviy strategiyalarini takomillashtirish va bank tizimining moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi, kreditlash amaliyotidagi qator kamchiliklar, «Digital bank» tizimi orqali kutilayotgan bank daromadlari tahlil qilingan va takliflar ishlab chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasiga ko‘ra, tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda kreditlash bo‘yicha ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini ko‘rsatish va taklif etish borasida sog‘lom raqobat muhiti takomillashmoqda. Shuningdek, har bir tijorat banki jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlash tizimida turli xildagi kredit mahsulotlarini taklif etib, mijozlar safini kengaytirish va yuqori daromad ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishni maqsad qiladi. O‘z o‘rnida kredit mablag‘laridan foydalanuvchilar kreditga sovg‘a yoki hadya deb emas, balki moliyaviy maqsadlarga erishish uchun imkoniyat sifatida qarashi kerak. Kredit asosan ma‘lum bir maqsadga, muddatga, ta‘minot ostida, uni so‘ndirish grafigi asosida va qarzdorning to‘lay olish qobiliyatiga qarab ajratiladi. Bular kreditning eng muhim va asosiy tamoyillari hisoblanadi. Chunki bank kredit berish uchun jalb qilingan mablag‘larini omonatchi va depozit egalariga foizi bilan birga o‘z vaqtida qaytarishi, o‘z xarajatlarini qoplashi va kreditni qaytish yoki qaytmaslik riskini oldindan baholashi lozim. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari kredit ajratishda foiz stavkalarini mustaqil belgilaydi. (*Davlat dasturlari asosida shartlari qat‘iy belgilangan imtiyozli kreditlardan tashqari har qanday bank xizmatlari bo‘yicha foiz va komission to‘lovlarni belgilashda banklar mustaqil*). Shuningdek, tijorat banklarida kreditlash mexanizmi har bir tijorat banking kredit siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu tartibga ko‘ra, kreditlash ham bir necha klassifitsiyalarga bo‘linadi. Bunda banking korporativ mijozlari uchun, davlat byudjetidan va xususiy sektordan daromadga ega bo‘lgan mijozlar tasniflanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholini kredit mablag‘laridan foydalanishni, kredit tizimini takomillashtirish bo‘yicha tahlillarni B.Berdiyarov, I.Alimardanov, T.Babakulovlar ko‘rsatib o‘tgan. Mamlakatimizda tijorat banklarining rivojlanishi va ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash masalalarini A.Bektemirov[2], A.Abdullaevlar[3] tomonidan “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash muammolari va

yechimlari” hamda “bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish muammo va yechimlari” nomli ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlash, kreditlash tizimini optimallashtirish va zamonaviy raqamli bank tizimi transformatsiyasi bo‘yicha katta tajribaga ega mamlakatlar modellarini guruhlash orqali o‘rganish e‘tiborga molikdir. Aynan bu yo‘nalishda jahon tajribasi aksariyat rivojlangan davlatlar miqyosida olinadi. Bunda Germaniya modeli – maxsus tashkil etilgan Germaniya Federal moliyaviy nazorat muassasasi nazorat bilan shug‘ullanadi, Angliya modeli – turli agentlik, har bir moliya sektorlari faoliyatini tartibga solib boradi, Amerika modelida – Federal zahira tizimi orqali nazoratga oladi va barqaror moliyaviy va to‘lov qobiliyati mustahkamligini megaregulyator vazifasini amalga oshiradi. Iqtisodiy potentsiali yuqori bo‘lgan bu davlatlarning modellari iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar uchun tayyor iqtisodiy yo‘riqnoma vazifasini o‘taydi. Barcha moliyaviy sektorlar uchun xususan, bank tizimida ham xalqaro standartlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish amaliyoti tezlashishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda O‘zbekiston bank tizimida taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlarida, xususan kreditlash amaliyotida bir qator kamchiliklar kuzatilib, tijorat banklari va mijozlar o‘rtasida ishonchsizlik ortmoqda. Xususan, mijozlarga ajratilgan kreditlar hajmida muddati o‘tgan kreditlarning salmog‘i keskin darajada ortishi, bank amaliyotida risklar darajasi oshishi, bank xavfsizligini ta‘minlash yetarli talab darajasida emasligi, banklarda kredit turlarini amaliyotga keng miqyosda joriy etish rivojlanmasligi. Shuningdek, banklar kredit amaliyotida zamonaviy skoring tizimlari qo‘llanilmayapti, mijozlarning kreditga bo‘lgan layoqatini o‘rganish va baholash yuqori talab darajasida emas, ish haqi daromadlarini o‘rganishda cheklovlar borligi, kredit ta‘minotining turlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammolar yuzaga kelyapti.

Milliy bank tizimida 2023 yilda aktivlar miqdori o‘tgan yilga nisbatan 134 foizga, kreditlar miqdori 117 foizga oshgan bo‘lsada, sof foyda miqdori 33 foizga kamaygan. Shu bilan birga, aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi o‘tgan yilga nisbatan 0,9 foizga, bank kapitalining rentabellik ko‘rsatkichi 4,2 foizga kamaygan.

Mazkur ko‘rsatkichlar miqdorining kamayish sababini bank tizimida muddati o‘tgan muammoli kreditlarga shakllantirilgan zahiralarning keskin darajada o‘sganligi bilan izohlash mumkin. Bu kabi muammolarning yechimini topish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 mayda “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda davlat ulushiga ega bo‘lgan banklarni korporativ transformatsiyalash jarayonining korporativ boshqaruvini takomillashtirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va ularning ko‘lamini kengaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish masalalari belgilandi. Buning uchun mamlakatimizda milliy bank tizimining moliyaviy barqarorligini uzluksiz isloh qilib borish, xalqaro bank amaliyotlarida tajribadan o‘tgan moliyaviy bank modellarini mamlakatimiz bank amaliyotiga joriy etish orqali banklarning faoliyatini transformatsiya qilish, bank tizimining likvidligini ta‘minlash kabi qator masalalarni hal qilish zarur.

Quyidagi jadval ma‘lumotlarida davlat ulushi mavjud va xususiy banklar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i o‘zgarishi keltirib o‘tilgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'zgarishi [8], [9]

(mlrd.so'm)

| Ko'rsatkich nomi | 01.01.2021 y. | 01.01.2022 y. | 01.01.2023 y. | 01.01.24 y. |
|---|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i | 39 934 | 54 888 | 69 496 | 100 949 |
| Ipoteka kpeditlari | 20 326 | 28 301 | 35 946 | 46 460 |
| Iste'mol kreditlari | 3 177 | 5 737 | 9 429 | 25 234 |
| Mikroqarz | 5 492 | 12 237 | 12 795 | 14 651 |
| Tadbirkorlik faoliyati uchun mikro kreditlar | 6 467 | 8 613 | 11 326 | 14 567 |
| Boshqa kreditlar | 4 472 | 0 | 0 | 36 |
| Jami kredit qo'yilmalar | 211 581 | 276 975 | 326 386 | 390 049 |
| Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi. % | 19% | 20% | 21% | 26% |

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar shartlari va uning qulayligi, kredit olishda turli to'siqlarning kamayib borayotganligi kreditlash hajmini oshishiga xizmat qilmoqda. Birgina tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 2024 yilda (100949 mlrd.so'm) 2023 yilga nisbatan (69496 mlrd.so'm) 1,45 barobarga yoki 31453 mlrd.so'mga oshganligi ushbu holatni tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil holatiga masofaviy bank xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni 20 203 384 tashkil qiladi. Shundan xo'jalik sub'ektlar 968 600 tani, jismoniy shaxslar 19 234 800 tani tashkil qiladi.

Ma'lumotlaridan kuzatish mumkinki, masofaviy bank xizmatlaridan (kredit, pul o'tkazmalari, omonat kabi) aynan foydalanuvchi xo'jalik sub'ektlar soni jismoniy shaxslar sonidan bir necha barobar kam ekanligi va bunday xizmat turlari yuridik shaxslar uchun mamlakatimizda yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rish mumkin. Bu esa tijorat banking yuridik mijozlari uchun bir qator noqulayliklar, xususan bank xizmati sifatli ko'rsatilishiga sa'lbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishda masofaviy bank xizmatlaridan oqilona foydalanish lozim. Hisobraqam aylanmalarini, kirim-chiqim xarajatlarini ilova orqali tekshirib turish, korporativ karta orqali bajariladigan amaliyotlar sohasini kengaytirish, kredit olish uchun onlayn ariza berib, kerakli hujjatlarni yuklash imkoniyatlarini masofaviy amalga oshirish kabilar tez va sifatli bank xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Markaziy bank ma'lumotlariga asosan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo'jalik sub'ektlar soni 838 817 tani tashkil qilsa, har bir ulangan xo'jalik sub'ektidan obonent to'lovi eng kam bazoviy hisoblash miqdorining 40 foizi miqdorida 98 000 so'm to'lov olinishini hisobga olinsa, xo'jalik sub'ektlar soni «digital bank» raqamli banking tizimiga jalb etishda 1 foizni tashkil qilganda obonent to'lovi 98.000 so'mdan hisoblansa, birinchi-uchinchi oylardagi daromad 822 mln.so'mni tashkil qiladi. Jalb etish 20 foizgayetkazilganda esa daromad 16 440 mln. so'mga yetkazilishi mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbekistonda bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagilar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- banklarning kreditlash amaliyotiga transformatsiyalash modeli («ball tizimi») shkalasini qo'llash orqali kredit portfelining sifatini oshirish bilan birga bank daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

- kredit ta'minotlari sifat darajasini baholash mezonlarini «sinflar» bo'yicha tasniflash orqali bank kreditlarining qaytmaslik risklarini kamaytirish;
- banklarda kreditlash amaliyotini «smart raqamli bank» fazasiga transformatsiyalash orqali bank mijozlarining sonini va kredit portfeli miqdorining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga kredit ajratish jarayonida o'rganiladigan KATM ma'lumotlarini har bir tijorat banking mobil ilovalari orqali yuklab olish mexanizmini yo'lga qo'yish;
- tijorat banklarining mobil ilovalari orqali masofadan olinayotgan onlayn mikroqarzlarni ajratishda mijoz to'lovga qobiliyatlilik shkalasini ilova orqali aniqlash imkoniyatini yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3270-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y.,07/17/3270/0004.
2. Bektemirov A. Bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: muammo va yechimlar. "O'zbekiston bank sohasidagi innovatsiyalar: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 10.04.2022y
3. Abdullaev A.Ya. Kattakishiev B. O'zbekistonda bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash muamo va yechimlari. "O'zbekiston bank sohasidagi innovatsiyalar: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 10.04.2022y
4. Norov A.R. Tijorat banklarining tadbirkorlik su'byektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish. Toshkent-2022 y -75b.
5. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is one of the Tools. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 66-69.
6. Alikulov, A. T., Iskandarovich, R. R., & Komiljon, O. (2022). O'zbekistonda tijorat banklarining barqaror faoliyatini amalga oshirishda raqamli bank xizmatlarini joriy etish. *Results of National Scientific Research*, 1(2), 62-67.
7. Aliqulova, A. (2020). Analysis of the Activities of Securities of Commercial Banks at the RSE "Tashkent". *International Finance and Accounting*, 1, 13.
8. Аликулов, А.Т. (2023). Факторы, влияющие на организацию IPO. *Място Пишлосьци*, 42, 661-664.
9. Tuygunovich, A. A. (2023). CHAKANA INVESTORLARNING KAPITAL BOZORIDA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje.*, 222-229.
10. Аликулов, А.Т. (2023). Возможности привлечения капитала через фондовый рынок в Узбекистане.
11. Alikulov, A. T., Tursunov, S. H., Oramov, J. Z., ugli Shoimardonov, O. Z., & Bakhriev, D. R. IMPROVING THE EFFICIENCY OF USING CAPITAL RAISED IN THE FINANCIAL MARKET.
12. Туйгунович, А.А., и Исламовна, Г.Ф. (2022). КАКИЕ ФАКТОРЫ ВЛИЯЮТ НА АКТИВНОСТЬ РОЗНИЧНЫХ ИНВЕСТОРОВ НА РЫНКЕ КАПИТАЛА. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 373-380.
13. Choriyevich, M. J. (2024). EFFICIENCY OF FARM ACTIVITY AS AN OBJECT OF STATISTICAL STUDY. *IMRAS*, 7(6), 769-775.
14. Choriyevich, M. J. (2024). STATISTICAL ASSESSMENT OF EFFICIENCY OF FARMS IN THE

- AGRICULTURAL SECTOR OF THE COUNTRY. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 1735-1741.
15. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). The role and importance of clusters in the agricultural sector. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
 16. Туробов, Ш. А. (2019). Оилаларда тадбиркорликни ривожлантириш борасида олиб борилаётган ислохотлар самараси. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 35-39.
 17. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). Prospects for Household Entrepreneurship Development. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 79-84.
 18. Turobov, S. A. (2019). The effect of reforms on the development of entrepreneurship in families. *Economics and Finance (Uzbekistan)*, (11).
 19. Turobov, S. A. (2019). The effect of reforms on the development of entrepreneurship in families. *Economics and Finance (Uzbekistan)*, (11).
 20. Murodov, J. C. (2023). KLAS TER TIZIMI VA UNING FERMER XO ‘JALIKLARI RIVOJIDAGI O ‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 24, 147-155.
 21. Муродов, Ж. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИННОВАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 23(Maxsus_son), 576-581.
 22. Utanov, B., Mamatkulov, B., Akhmedova, M., Murodov, J., & Abdikulova, D. (2021). Correlation Of The Interaction Of Agricultural Production With The Volume Of Dehkanproduction In Uzbekistan. *Ilkogretim Online*, 20(3).
 23. Муродов, Ч., & Муродова, М. (2014). Агрокластер: ташкил этишнинг назарий асослари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (2), 19-25.
 24. Jahongir, F., & Iskandarovich, S. S. (2023). Development of Financial Market Activity by Optimization of Stock Issuance. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 1(2), 6-9.
 25. Хушмурадов, О. (2023). TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA ‘MINLASH ISTIQBOLLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).
 26. Хужакулов, Х. Д., & Хушмурадов, О. Н. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 9-18.
 27. Хушмурадов, О. (2023). ҒАЛЛАЧИЛИҚДА БОЗОР МЕХАНИЗМЛАРИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ ЭРКИН РАҚОБАТ ГАРОВИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 411-419.
 28. Alisherovich, T. S., & Ugli, N. B. V. (2023). Internal Control in Banks. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(3), 34-39.
 29. Alisherovich, T. S. (2023). IMPROVING ACCOUNTING AND ITS MAINTENANCE IN BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 31, 15-20.
 30. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
 31. www.cbu.uz.
 32. www.nbu.uz.
 33. www.stat.uz.